



## 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida jami 2230,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,6 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxon va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 487,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 659,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxon va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1561,2 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 70,0 % ini tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 181,8 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,5 % ni tashkil qildi.


**Ma‘lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.





## Iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha qurilish ishlari

(ishlar hajmi, mlrd. so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 70,1 % ni tashkil etadi.



Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,5 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,4 % to'g'ri keldi.





## Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

### 2020- yil yanvar-sentabr

6,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

25,7



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

67,6



Bino va ins hootlarni  
qurilishi

### 2021- yil yanvar-sentabr

5,4



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,5



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

70,1



Bino va ins hootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi


(mlrd. so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati :</b>	<b>2230,7</b>	<b>487,7</b>	<b>1561,2</b>	<b>181,8</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>607,2</b>	<b>10,2</b>	<b>554,2</b>	<b>42,8</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>125,1</b>	<b>55,7</b>	<b>67,0</b>	<b>2,4</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>142,0</b>	<b>0,6</b>	<b>131,9</b>	<b>9,5</b>
<i>tumanlar :</i>				
<b>Boyovut</b>	<b>121,2</b>	<b>4,7</b>	<b>102,7</b>	<b>13,8</b>
<b>Guliston</b>	<b>223,8</b>	<b>61,3</b>	<b>147,7</b>	<b>14,8</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>285,7</b>	<b>77,8</b>	<b>187,3</b>	<b>20,6</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>109,8</b>	<b>0,3</b>	<b>101,7</b>	<b>7,8</b>
<b>Sardoba</b>	<b>43,4</b>	<b>0,2</b>	<b>33,5</b>	<b>9,7</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>62,7</b>	<b>0,5</b>	<b>53,1</b>	<b>9,1</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>332,4</b>	<b>189,9</b>	<b>99,6</b>	<b>42,9</b>
<b>Xovos</b>	<b>177,4</b>	<b>86,5</b>	<b>82,5</b>	<b>8,4</b>



## Hududlar kesimida qurilish ishlari o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati 91,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Oqoltin tumanida 216,5 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘ati Sirdaryo tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 221,4 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1561,2 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 70,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 487,7 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 21,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 659,8 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 181,8 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 8,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil qildi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 179,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 8,1 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga koʻpaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 2050,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 91,9 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



- Guliston sh.
- Shirin sh.
- Yangiyer sh.
- Boyovut
- Guliston
- Mirzaobod
- Oqoltin
- Sardoba
- Sayxunobod
- Sirdaryo
- Xovos

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 27,2 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 14,9 %, Mirzaobod tumaniga 12,8 %, Guliston tumaniga 10,0 % va Xovos tumaniga 8,0 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 236-86-27

